

“Turonbank” ATB Kengashining
2024-yil “27” dekabr dagi
K-84/8- son qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruvining
2024-yil “27” dekabr dagi
148/2- son qarori bilan

“MA’QULLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” № 1222

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING
KREDIT TA’MINOTI
SIYOSATI**

M U N D A R I J A

1-bob.	Umumiy qoidalar.....	3
2-bob.	Siyosatning maqsadi va Bank tizimida kredit ta'minoti bo'yicha amalga oshiriladigan asosiy vazifalar.....	4
3-bob.	Kredit ta'minotiga qo'yiladigan talablar.....	5
4-bob.	Kredit hajmining garov qiymatiga nisbati.....	10
5-bob.	Navbatdagi garovga olish tartibi.....	13
6-bob.	Mustaqil baholovchining hisobotiga talablar.....	14
7-bob.	Kreditning garov mulkiga nisbatan garov shartnomasini rasmiylashtirish va taqiqqa qo'yish shartlari.....	16
8-bob.	Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish.....	17
9-bob.	Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasini ko'rib chiqish tartibi.....	17
10-bob.	Javobgarlik.....	20
11-bob.	Yakuniy qoidalar.....	21

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi matnlarda-“Bank” deb yuritiladi)ning Kredit ta’minoti Siyosati” (keyingi matnlarda-“Siyosat” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Iste’mol krediti to‘g‘risida”, “Garov to‘g‘risida”, “Ipoteka to‘g‘risida”, “Lizing to‘g‘risida”, “Baholash faoliyati to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, 2024-yil 27-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘s Shimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-914 Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi “Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini ta’minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora tadbirdi to‘g‘risida”gi PQ-4071-son qarori, 2023-yil 10-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rnini va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘s Shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-364-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizom”, 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida Nizom”, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda-“Bank” deb yuritiladi) Ustavi, 2023-2027-yillarda “Turonbank” ATBning rivojlanish Strategiyasi, Bankning tegishli ichki me’yoriy hujjatlari talablariga, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (“XMK”) tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat Bankning ichki me’yoriy hujjati hisoblanadi, uning talablariga kreditlash amaliyotlari bilan bog‘liq Bankning barcha tuzilmalari, Bank Kredit qo‘mitasi va Bank BXM Kredit komissiya a’zolari, monitoring jarayonini ta’minlovchi mutaxassislar qat’iy amal qilishlari shart.

2. Ushbu Siyosat va boshqa qonunchilik hujjatlari normalarida nomuvofiqlik kuzatilgan taqdirda yuridik jihatdan yuqori kuchga ega bo‘lgan hujjatlar qoidalariga amal qilinadi.

3. Mazkur Siyosat Bank tizimida kredit ta’minoti bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy vazifalar, kredit ta’minotiga qo‘yiladigan talablar, kredit hajmining garov qiymatiga nisbati, navbatdagi garovga olish tartibi, mustaqil baholovchining hisobotiga talablar, kreditning garov mulkiga nisbatan garov shartnomasini rasmiylashtirish va taqiqqa qo‘yish shartlari, garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasini ko‘rib chiqish tartibini belgilab beradi.

4. Ushbu Siyosat talablariga rioya qilinmagan holda kredit bo‘yicha majburiyatning bajarilishi uchun ta’minot sifatida taqdim qilingan mol-mulk garovdan chiqarilgan taqdirda mas‘ul shaxslar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

5. Mazkur Siyosatda quyidagi **asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:**

Bank – “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki;

BXM/BXO - Bank xizmatlari markazlari, Bank xizmatlari ofisi;

Rahbar – “Turonbank” ATB tarkibiy bo‘linmalari va BXM/BXO rahbarlari;

Bank Kengashi — bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgar;

Bank Boshqaruvi — bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi;

Kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar — qarz, kredit, mikroqarz, mikrokredit, mikrolizing, overdraft (mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi debet qoldig‘i), lizing, faktoring operatsiyalari, savdoga oid moliyalashtirishlar (akkreditiv), kafolat va kafilliliklar;

Kredit qo‘mitasi – Bosh bankda tashkil etilgan, ushbu siyosat bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish, “«Turonbank» ATBning Kredit qo‘mitasi Nizomi”da belgilangan vazifalarni bajaruvchi **kollegial organ**;

Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari – Bank xizmatlari markazlarida tashkil etilgan, ushbu siyosat bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish, «Turonbank» ATB Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari Nizomi”da belgilangan vazifalarni bajaruvchi **kollegial organ**;

Mas’ul tarkibiy bo‘linma - Monitoring va nazorat qilish departamenti;

Mas’ul xodim – BXMyar bo‘yicha Monitoring va garov ekspertizasi bo‘limi xodimlari;

Garov - Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta’minalash uchun berishi garov hisoblanadi.

2-bob. Siyosatning maqsadi va Bank tizimida kredit ta’motni bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy vazifalar

6. Ushbu Siyosat Bank tomonidan ajratilgan kredit, ko‘rsatilgan lizing xizmatlari hamda berilgan bank kafolati (keyingi o‘rinlarda “kredit” deb yuritiladi) uchun taqdim qilinadigan ta’motga qo‘yiladigan talablar, garov mulkiga nisbatan garov shartnomalari rasmiylashtirish va taqiqqa qo‘yish, mustaqil baholovchi tashkilotlarning baholash hisobotiga qo‘yiladigan talablar hamda ta’mot sifatida taqdim qilingan mol-mulkni boshqa mol-mulkka to‘liq yoki qisman almashtirish va majburiyatning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda garovdan chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan.

7. Bank tizimida kredit ta’motni bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) kredit ta’motiga qo‘yiladigan talablarni ko‘rib chiqish;

2) kredit hajmining garov qiymatiga nisbati hisoblash;

3) navbatdagi garovga olish tartibini o‘rganib chiqish;

4) garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasini ko‘rib chiqish tartibidan iborat.

3-bob. Kredit ta'minotiga qo'yiladigan talablar

8. Bank tomonidan kreditlar mol-mulk va qimmatli qog'ozlar garovi, bank va sug'urta tashkilotlari kafolati, uchinchi shaxs kafilligi, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni qaytmasligi xatarining bank foydasiga sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi va ta'minotning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari asosida beriladi.

9. Ta'minot kreditni to'lashning ikkilamchi manbai hisoblanadi va ta'minotga kreditni qoplashning asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim. Kreditni qaytarishning asosiy manbai xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun ularning xo'jalik faoliyati davomida olgan moliyaviy daromadlari, jismoniy shaxslar uchun esa ularning mehnat faoliyati davomida olgan va boshqa daromadlari hisoblanadi.

10. Quyidagilar kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin:

1) depozitlarda turgan erkin almashiniladigan xorijiy valyuta yoki milliy valyutadagi pul mablag'lari garovi;

2) O'zbekiston Respublikasi Davlat kafolati;

3) O'zbekiston Respublikasi Hukumati va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qimmatli qog'ozlari garovi;

4) avtotransport vositalari, maxsus va qurilish texnikalar, qishloq xo'jaligi mashinalari garovi;

5) ko'char va ko'chmas likvid mol-mulklar garovi;

6) banklar va sug'urta tashkilotlarining kafolati;

7) kredit qaytmaslik xatarining sug'urtasi;

8) "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi"ning kafilligi;

9) uchinchi shaxs kafilligi/kafolati. Kafillik/kafolat berayotgan uchinchi shaxs 2-sinfdan past bo'limgan kredit layoqatiga ega bo'lishi kerak;

10) mahsulotlar eksportidan, ichki bozorda mahsulot sotishdan kelajakda tushadigan tushumlar;

11) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PQ-364-son qaroriga muvofiq mikromoliya tashkilotlariga kredit ajratishda ularning ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlari bo'yicha talab qilib olish huquqining garovi;

12) qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mol-mulklar garovi.

11. Garov sifatida taqdim etilayotgan mol-mulk quyidagi talablarga javob berishi lozim:

a) likvidli bo'lishi. Bunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4071-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda, kredit bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish hisobiga undiruv qaratiladigan garov mulki qo'shimcha baholanmasligi, bank va qarzdor o'rtaida tuzilgan garov(ipoteka) shartnomasida ko'rsatilgan narx bo'yicha sotilishi, garov mulkini sotish bozor narxiga erishilgunga qadar sotish narxini bosqichma-bosqich pasaytirish mexanizmini qo'llagan holda amalga oshirilishi va bu sotish narxi hisoblanishi inobatga olinishi lozim;

- b) kredit va uning foizlarini to‘liq qoplash imkoniyatini berishi;
- c) uzoq vaqt saqlash mumkinligi (saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo‘lmasligi lozim);
- d) garov mulkini bank xodimlari nazorat qilib turish yoki garov obyektiga yetib borish imkoniyati mavjudligi;
- e) garovga qo‘yuvchining egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va garovga qo‘yish huquqi mavjudligi.

12. Kredit ta’minotiga turar joy garovga qo‘yilayotgan bo‘lsa, u holda bank mutaxassislari tomonidan ushbu garovga qo‘yilayotgan turar joy garovga qo‘yuvchi fuqaroning yagona turar joyi emasligi (garovga qo‘yuvchining nomida kamida 2 ta uy-joy mavjud bo‘lishi lozim), ushbu turar joyda hech kim ro‘yxatda turmasligi o‘rganilishi lozim (ipoteka kreditidan tashqari).

13. Kreditlarning qaytarilish ta’minoti bo‘lib iste’mol qilinmaydigan muomaladagi (oborotdagi) tovarlar, (moddiy qimmatliklar)ning o‘zgarmas qoldig‘i ham xizmat qilishi mumkin. Bunda muomaladagi tovarlarning o‘zgarmas qoldig‘i garovga jami ta’minotning **50** foizidan ortiq bo‘lмаган qismi uchun maksimal muddati 18 oydan oshmagan kreditlar ta’minotiga, majburiy tarzda kredit muddati tugagunga qadar sug‘urtalangan holda olish mumkin.

Garovga qo‘yilayotgan muomaladagi tovarlarning kelib chiqishiga, ularning sifat sertifikatlariga, yaroqlilik muddatlariga alohida e’tibor berilishi zarur.

14. Garov shartnomasida bankning muomaladagi tovarlarni sotishdan qarz oluvchining barcha hisobvaraqlariga kelib tushayotgan mablag‘larni, birinchi navbatda, akseptsiz tartibda muddatida qaytarilmagan kredit hamda hisoblangan, ammo muddatida to‘lanmagan foizlar to‘lovida yo‘naltirishga, qonunchilik hujjalarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, haqli ekanligi qayd etilishi shart.

Kredit ta’minoti sifatida jismoniy shaxsning kafilligi taqdim etilsa, bir shaxsning kafilligi daromadlarining yetarliliga bog‘liq holda amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining **125** (bir yuz yigirma besh) barobaridan oshmagan miqdorda qabul qilinadi. Bunda kredit inspektori tomonidan kafillik berayotgan jismoniy shaxsning to‘lov qobiliyati belgilangan tartibda o‘rganib chiqilishi zarur.

15. Kredit ta’minotiga ko‘chmas mulk, asosiy vositalar, transport vositalari, qishloq xo‘jalik texnikasi va tovar-moddiy boyliklar garovi rasmiylashtirilganda mulk egasidan ushbu mulklarning haqiqatda mavjudligi, ularga nisbatan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjalalar, ushbu mol-mulklar belgilangan tartibda vakolatlari organlar (Davlat kadastr, “O‘zdavlattexnazorat” inspeksiyasi, DYHXX va boshqalar) ro‘yxatida turganligi haqida tegishli ma’lumotlar olinishi shart.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldaggi 71-sonli Qarori asosida xususiy lashtirilgan yerlarni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdaggi 420-sonli Qaroriga muvofiq kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqi berilgan davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini hamda ko‘p kvartirali uy-joylarning qurilishi yakunlangan qismini (qavatlarini) faqatgina mazkur uy-joylarni qurish uchun ajratiladigan kreditlar ta’minotiga garovga qabul qilishga ruxsat etiladi.

Bunda, pudrat tashkiloti egalik huquqidagi foydalanishga topshirilgan ko‘p kvartirali uy-joylardagi kadastr hujjatlari mayjud va turar joy sifatida aholiga sotishga tayyor xonadonlarni bank tomonidan ajratiladigan boshqa kreditlar ta’minotiga garovga qabul qilishga ruxsat etilmaydi (loyiha doirasida qurilishi davom ettiriladigan ko‘p kvartirali uy-joylar uchun ajratiladigan kreditlar bundan mustasno).

16. Kredit depozitlar, sug‘urta polisi va boshqa ta’minot turi asosida rasmiylashtirilganda, ajratilayotgan kredit va ta’minot muddatlarining o‘zaro mutanosibligi ta’minlanishi lozim.

17. Kreditni qaytarish ta’minoti bo‘lib o‘rnatilgan tartibda litsenziyaga ega bo‘lgan sug‘urta tashkilotining kreditlarni qaytarmaslik xatari sug‘urtasi xizmat qilishi mumkin.

Sug‘urta tashkilotining kreditlarni qaytmaslik xatari sug‘urtasi jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlariga amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining **150** barobarigacha miqdorda kredit ajratishda **100** foizgacha, boshqa holatlarda qarz oluvchiga ajratilayotgan umumiy kredit ta’minoti summasining **10** (o‘n) foizigacha miqdorini tashkil etishi talab qilinadi. Biroq, bu sug‘urta tovoni summasi kredit summasining **100** (bir yuz) foizi miqdorida taqdim qilinishiga to‘sinqilik qilmaydi va qo‘srimcha ravishda ajratilayotgan umumiy kredit ta’minoti summasining qolgan qismiga boshqa ta’minot turi talab qilinadi. Bunda, qarz oluvchi kreditni qaytarganda va kredit bo‘yicha o‘z majburiyatlarini imkon qadar kamaytirganda, kredit bo‘yicha qaytarilgan summaga mutanosib ravishda kredit qaytmaslik xatarini sug‘ortalash polisi ta’minlanishidan ozod etiladi.

Mazkur talab bank kafolati berishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining majlis bayonlari (topshiriqlari), Vazirlar Mahkamasining qarorlari va majlis bayonlari (topshiriqlari)da nomlari ko‘rsatib o‘tilgan va ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirayotgan hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, uy-joy mulkdorlari shirkatlariga, shuningdek Bank Kredit qo‘mitasi qarori asosida kreditlar ajratilayotganda hamda garov ta’minotini almashtirilishi natijasida sug‘urta polisi qiymati mazkur me’yordan oshib ketgan taqdirda Bank Boshqaruvining qarori asosida istisno qilinishi mumkin.

18. Kredit ta’minotiga sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta polislari rasmiylashtirilishidan avval ularning moliyaviy holati barqarorligini yoki yuqori reyting darajasiga egaligini tasdiqlovchi hujjatlar, ularning faoliyati yuzasidan tegishli litsenziysi, sug‘urta kompaniyasining Bosh ofisi tomonidan berilgan ishonchnomalar talab qilib olinishi lozim.

19. Uchinchi shaxs kafilligi jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlariga amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining **150** barobarigacha miqdorda kredit ajratishda 100 foizgacha, boshqa holatlarda ajratilayotgan umumiy kredit ta’minoti summasining **15** (o‘n besh) foizigacha miqdorini tashkil etishi talab qilinadi. Biroq, bunda kafillik summasi kredit summasining **100** (yuz) foizi miqdorida kafil tomonidan taqdim qilinishiga to‘sinqilik qilmaydi, shuningdek “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning kafilligi olingan kreditlar ta’minotiga uchinchi shaxs kafilligi va kredit qaytmaslik xatarini sug‘ortalash polisi qabul qilinmaydi, bank tomonidan qo‘srimcha ravishda umumiy kredit ta’minoti summasining qolgan qismiga boshqa likvid ta’minot turi talab qilinadi.

Mazkur talab bank kafolati berishda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining majlis bayonlari (topshiriqlari), Vazirlar Mahkamasining qarorlari va majlis bayonlari (topshiriqlari)da nomlari ko'rsatib o'tilgan va ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirayotgan hamda strategik ahamiyatga ega bo'lган xo'jalik yurituvchi subyektlarga, uy-joy mulkdorlari shirkatlariga, shuningdek Bank Kredit qo'mitasi qarori asosida kreditlar ajratilayotganda hamda garov ta'minotini almashtirilishi natijasida kafillik qiymati mazkur me'yordan oshib ketgan taqdirda Bank Boshqaruvining qarori asosida istisno qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi «Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-193-son Farmoniga muvofiq "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tomonidan beriladigan kafillik miqdori alohida ta'minot sifatida qaraladi va mazkur talab tadbiq etilmaydi. Shuningdek, qarz oluvchi kreditni qaytarganda va kredit bo'yicha o'z majburiyatlarini imkon qadar kamaytirganda, birinchi navbatda, kredit bo'yicha qaytarilgan summaga mutanosib ravishda "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligi ta'minotdan ozod etiladi. Xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar ta'minotiga milliy valyutadagi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligi qabul qilinganda, kredit shartnomasiga "xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan qiymati oshishi hisobidan hosil bo'lган ta'minot defitsitini qoplash maqsadida kredit muddatidan avval qisman so'ndirish yoki boshqa ta'minoti turi bilan qoplash majburiyatini yuklash" bo'yicha tegishli bandlar qo'shilishi talab etiladi.

Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha jismoniy uchinchi shaxs kafilligi qabul qilinayotganda uch tomonlama kafillik shartnomasi notarial tasdiqlangan yoki kafil BXMa kelgani holda BXMa rahbari va yuristi ishtirokida shartnomaga imzo qo'ygan bo'lishi kerak. Kafillik shartnomasi yuqorida ko'rsatib o'tilgan shaxslar ishtirokida imzolanganligi ularning shartnomadagi imzolari bilan tasdiqlanadi.

20. Kafilning to'lov qobiliyatini tahlil qilishda kreditga layoqatlilik sinfi 2-sinfdan past bo'lsa yoki zarar bilan ishlayotganligi aniqlansa, jami aktivlari beriladigan kafillik summasidan kam bo'lsa yohud o'z majburiyatlarida bank kreditlaridan qarzdorligi, beriladigan kafillik summasidan ortgan holda, ushbu kafillik ta'minotga qabul qilinmaydi. Kafillik qo'shimcha ta'minot sifatida qabul qilinayotgan holatlar bundan mustasno.

21. Kafillik asosida ajratilgan kreditlarning monitoringi natijasida kafilning to'lov qobiliyati yomonlashganligi, ya'ni so'nggi moliyaviy hisobotlari bo'yicha balansining nolikvidligi yoki zarar bilan ishlab kelayotganligi aniqlangan taqdirda, kreditga boshqa ta'minot turini rasmiylashtirish yoki kreditni muddatidan oldin undirish choralar ko'riladi.

22. To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportidan kelajakdag'i tushumini akkreditiv shartnomasi qiymatining **80** foizidan oshmagan miqdorida, shuningdek boshqa mahsulotlar eksportidan, ichki bozorda mahsulot sotish yoki xizmat ko'rsatishdan tushadigan tushumlar Bank Kredit qo'mitasi qaroriga asosan shartnoma bahosining **100** foizidan oshmagan miqdorda ta'minotga qabul qilinishiga ruxsat etiladi.

23. Likvidli mol-mulk, real qimmatliklarni garovga olgan holda kreditlash jarayoni ularning mayjudligi, yaroqliligi, saqlanishi va boshqa holati mazkur Kredit ta'minoti siyosatining 39-40-bandlariga muvofiq o'rganilib, tegishli tartibda baholangandan keyin amalga oshiriladi.

24. Garov sifatida olinayotgan mulk egasining yuqori turuvchi vakolatlari organlari hamda tegishli davlat organining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda roziliklari olinishi shart.

25. Kreditlanayotgan loyihani moliyalashtirish kredit ta'minoti to'liq rasmiylashtirilib, garovga bo'lgan huquq to'liq bank ixtiyoriga o'tganidan so'ng boshlanadi (26-27-bandlarda qayd etilgan tartibda ajratiladigan kreditlar bundan mustasno).

26. Kredit shartnoma summasi amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 1000 (bir ming) barobarigacha miqdorida bo'lgan kreditlar hisobiga ishlab chiqaruvchilardan yoki ularni realizatsiya qiluvchi rasmiy dilerlaridan mashina (avtotransport vositalari, maxsus va qurilish texnikalar, qishloq xo'jaligi mashinalari) sotib olinishi mo'ljallangan taqdirda, ushbu kredit mablag'i sotib olinayotgan mashinani garovga qo'yish sharti bilan garovga qo'yishning aniq muddati ko'rsatilgan holda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotining kreditni qaytarmaslik xatari sug'urtasi yoki uchinchi shaxs kafilligi asosida ajratilishi mumkin. Mazkur tartib muqaddam ushbu shart asosida kredit ajratilgan va kredit qarzdorligi to'liq so'ndirilmagan mijozlarga qo'llanilmaydi.

27. Bank BXMLarida muammoli kreditlarni qaytarish bo'yicha tegishli davlat organining qaroriga asosan Majburiy ijro byurosi tomonidan elektron savdoga chiqarilgan, shuningdek ayni paytda muammoli kreditning ta'minoti sifatida garovda bo'lgan mol-mulkarni sotib olish maqsadlariga ajratiladigan kreditlar, sotib olinadigan mol-mulkarni garovga qo'yishning aniq muddati ko'rsatilgan holda belgilangan tartibda sug'urta tashkilotining kreditni qaytarmaslik xatari sug'urtasi yoki uchinchi shaxs kafilligi asosida ajratilishi mumkin.

28. Garov ta'minotiga qabul qilingan ko'chmas mulk monitoring qilinganda, ko'chmas mulkni ko'zdan kechirilgandagi holati, bino-inshootlarning kadastr hujjatlari bilan mutanosibligi, kommunikatsiya tizimlari butligiga, avtotransport vositalari va maxsus texnikalar ko'zdan kechirilganda, ularning texnik holati, belgilangan vazifalarni to'liq bajara olishi va ish faoliyatida ekanligiga, uskunalarning joriy monitoringi rasmiylashtirilganda, ularning ish faoliyatida ekanligi, garovga qabul qilinishdagi qismlari to'liq mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

Joriy monitoring davomida garovga beruvchining STIRi, shaxsiy indentifikatsiya raqami, ko'chmas mulkni kadastr raqami, transport vositalarini kuzov raqami va boshqa shu kabi belgilari orqali www.garov.uz, www.davreestr.uz va boshqa shunga o'xshash manbalar orqali garovga olingan mulklar taqiqdan ozod etilmaganligini shuningdek, www.stat.uz va www.orginfo.uz kabi manbalardan foydalanib qarzdorning, kafillarning hamda garovga beruvchilarining faoliyatini tugatilmaganligini o'rganib borish, o'rganish natijasida qonun buzilish holatlari aniqlangan taqdirda BXM rahbari hamda Monitoring va nazorat departamentiga bildirgi kiritish talab etiladi.

29. Monitoring natijalari bo'yicha garovga qo'yilgan mulk buzilishi, qiymati kredit qoldig'iga nisbatan belgilangan miqdordan kamayishi yoki jismoniy zarar yetishi holatlari aniqlangan taqdirda, bank qo'shimcha ta'minot talab qilishi yoki muddatidan avval kredit so'ndirilishini talab qilishi haqli. Bu shart kredit shartnomasida belgilab qo'yilishi lozim.

30. Ajratilgan kreditlarning maqsadliligi o'rganilganligi va joriy monitoringi yuzasidan rasmiylashtirilgan dalolatnomalar va fotosuratlar ilova qilingan holda garov ekspertizasi va monitoring bo'limi xodimlari tomonidan Avtomatlashgan alohida Monitoring dasturiga biriktirib boriladi.

31. Kredit qarzdorligini qoplash uchun ta'minotning yetarliligi bo'yicha joriy bozorni o'rganish, qo'shimcha ta'minotni talab qilish kabi tez va to'g'ri qaror qabul qilish vazifasi BXM rahbari, o'rnbosari, kreditlash amaliyoti bilan shug'ullanuvchi bo'lim boshlig'iaga yuklatiladi.

32. Quyidagilar kredit ta'minotiga qabul qilinishi mumkin emas:

a) O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuning 19-moddasida keltirilgan davlat mulki obyektlari;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-maydagi "Davlat xavfsizligini ta'minlash manfaatlari nuqtayi nazaridan garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'limgan obyektlar toifalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 114-sonli qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatga kiritilgan garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'limgan obyektlar;

c) kreditni so'ndirish va foizlarni to'lash uchun yetarli hajmdagi likvid mol-mulkka, moliyaviy holatga ega bo'limgan va yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar kafilligi;

d) nolikvid mulk, oson buzilishi, tez qadrsizlanishi yoki boshqa salbiy omillar ta'sirida qiymatini yo'qotishi mumkin bo'lgan mol-mulklar;

e) amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan qizil chiziqda joylashgan ko'chmas mulklar;

f) O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijsro qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan fuqarolarning yashashi uchun zarur bo'lgan yagona turar-joylari va uy jihozlari, shuningdek tez buziladigan mahsulotlar (ipoteka kreditlari bo'yicha rasmiylashtirilayotgan ta'minot bundan mustasno).

4-bob. Kredit hajmining garov qiymatiga nisbati.

33. Kredit ta'minoti miqdori kredit summasining kamida **125** foizini, uchinchi shaxslarning mulki garovga olingan holda ajratilgan kreditlar ta'minoti miqdori kredit summasining kamida **130** foizini, xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning ta'minoti kamida **140** foizni tashkil etishi lozim. (Bankka aloqador shaxsga yoki uning nomidan faoliyat ko'rsatuvchi shaxsga kredit ajratilganda "Bir qarz oluvchi, o'zaro qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risida"gi Nizomda (ro'yxat raqami 3283, 2020-yil 29-oktyabr) belgilangan tartib qo'llaniladi).

34. Qarz oluvchiga kredit ajratilayotganda, kredit hisobiga barpo etilayotgan issiqxonani qurilish-pudrat shartnomasida ko'rsatilgan summasining **70** foizidan yuqori bo'limgan qiymatda shuningdek, kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo'yicha o'z qiymatining ya'ni, shartnomada bahosining quyidagi foiz miqdorigacha garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kredit hisobiga sotib olinayotgan mulklar boshqa kreditlar ta'minotiga faqatgina Bank ruxsati bilan garovga berilishi mumkin(mazkur talab kredit shartnomasida ko'rsatilishi lozim).

35. Kreditlar bo'yicha garovga olinayotgan mulkning turiga qarab uning bank tomonidan qabul qilinadigan bahosi mustaqil baholash tashkiloti tomonidan aniqlangan bozor bahosiga nisbati quyidagicha tasniflanadi:

	Mol-mulklar turi	Baholangan summaga nisbati	
		2 yilgacha muddatga ajratilgan kreditlar uchun	2 yildan yuqori muddatga ajratilgan kreditlar uchun
1	Ko‘chmas mulklar	80% gacha	80% gacha
2	Avtotransport vositalari, maxsus va qurilish texnikalar, qishloq xo‘jaligi mashinalari holatidan kelib chiqib: 2025-2024-yillarda ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2023-2022-yillarda ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2021-2020-yillarda ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2019-2018-yillarda ishlab chiqarilgan bo‘lsa 2017-2016-yillarda ishlab chiqarilgan bo‘lsa	80% gacha 70% gacha 60% gacha 40% gacha 30% gacha	70% gacha 60% gacha 50% gacha - -
3	Asbob-uskunalar (ishlab chiqarilgan vaqtiga 5 yildan oshmagan dastgohlar, qurilmalar, texnologik liniyalar hamda o‘zi yurmaydigan qishloq xo‘jalik texnikasi (tirkamalar))	40% gacha	40% gacha
4	Chet el kredit liniyalari orqali olingen tovar-moddiy boyliklar (loyiha amalga oshiriladigan ishlab chiqarish bino-inshootlar bilan birga taqdim qilinganda)	70% gacha	70% gacha
5	DQQ (Davlat qimmatli qog‘ozlari)	100% gacha	100% gacha
6	Omonat va depozitlardagi pul mablag‘lari (naqd pul, bank va boshqa banklarda saqlanayotgan omonat va depozitlar — so‘m va erkin ayriboshlanadigan valyutada)	100% gacha	100% gacha
7	Iste’mol qilinmaydigan muomaladagi (oborotdag) tovarlar (faqat 18 oydan oshmagan kreditlar uchun)	50% gacha	-

Yuqorida belgilangan foiz miqdori ayrim ajratiladigan kreditlar uchun Bank Boshqaruvi qarori bilan o‘zgartilishi mumkin.

36. Yuqoridagi talab kreditlar ta’midotiga qo‘sishimcha ta’minot sifatida garovga olinayotgan mulklarga hamda Bank tomonidan ajratilayotgan ipoteka kreditlari uchun tadbiq etilmaydi, ipoteka obyekti bozor bahosining **100** foiz qiymatigacha garov narsasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlarida va bankning ichki me’yoriy hujjatlarida kredit ta’midotiga nisbatan yuqoridagi talablardan boshqa talablar belgilangan bo‘lsa, o’sha hujjatlar talablariga amal qilinadi.

37. Transport vositalarini (avtotransport, o‘zi yurar qishloq xo‘jalik mashinalari, maxsus va qurilish texnikalari va h.k.) garov sifatida rasmiylashtirishda ularning likvidliligi (tez sotiluvchanligi), ularning jismonan va ma’nан eskirishi, yaroqlilik holati hisobga olinishi hamda so‘raladigan kredit muddatiga asoslanish lozim.

38. Asbob-uskunalar (dastgohlar, qurilmalar, texnologik liniyalar)ni garov sifatida rasmiylashtirish jarayonida ularning likvidliligi (tez sotiluvchanligi), ushbu asbob-uskunalarning kredit ajratilayotgan vaqtidagi holati va kreditdan foydalanish davrida moddiy va ma’naviy eskirish darajasi hisobga olinishi zarur.

39. Kreditlar mulk garovi bilan ta'minlanayotganda, ushbu garov narsasi "Garov obyektini baholash komissiya"si tomonidan joyiga chiqib o'rganiladi. Komissiya tarkibiga BXM rahbari o'rribbosari, biznes amaliyoti bilan shug'ullanuvchi bo'limi boshlig'i, BXM yuristi, Garov ekspertizasi va monitoring bo'limi xodimi, kredit yig'majildini shakllantirayotgan kredit xodimi (zarur hollarda boshqa mutaxassislar) kiritiladi va BXM rahbari buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Chakana kreditlar ajratishda "Garov obyektini baholash komissiya"si tarkibiga BXO rahbari yoki Chakana biznes bo'limi boshlig'i, kredit yig'majildini shakllantirayotgan kredit xodimi, Garov ekspertizasi va monitoring bo'limi xodimi (zarur hollarda boshqa mutaxassislar) kiritiladi.

Kredit miqdori **1,0** (bir) mlrd. so'mdan yuqori bo'lган taqdirda, "Garov obyektini baholash komissiya"si tarkibiga BXM rahbari kiritilishi zarur.

Komissiya tomonidan garovga taqdim etilayotgan mulkni ko'zdan kechirish jarayonida:

a) ushbu mulkning joriy ahvoli va uning haqiqatda mavjudligi;

b) mol-mulkning bugungi kundagi holati, qurilgan (ishlab chiqarilgan) vaqt;

c) uning egasiga qaysi asoslarda tegishliligi (tegishli shartnomalar, ko'chmas mulk kadastr hujjatlari, bino-inshootning, yer uchastkasining davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomalari, avtotransport vositalari, maxsus va qurilish texnikalari davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomalar va boshqalar.);

d) ko'chmas mulkning qizil chiziqda turmaganligi, mulkka mustaqil kirish imkoniyati borligi yoki belgilangan tartibda servitut o'rnatilganligi;

e) kredit qarzdorligi muammoga aylanib, uni undirish garov mulkiga qaratilganda, mulkning joyi, qurilgan vaqt, undan foydalanish qulayliklari bor-yo'qligi, mulk joylashgan hududda boshqa obyektlar bor-yo'qligidan kelib chiqib uni sotish imkoniyatlari;

f) garovga olinishi (garovda qolishi) ko'zda tutilgan turar joyning bank mutaxassislar tomonidan ushbu mulk egasining yagona turar joyi emasligi, ushbu turar joyda hech kim ro'yxatda turmasligi;

g) ko'chmas mulkning kadastr hujjatlari bilan mosligi, uni qaysi qismlari garovga qo'yilayotganligi mustaqil baholovchi kompaniya hisoboti bilan mosligi (bunda garovga qo'yilayotgan ko'chmas mulkni liter ko'rsatkichlari bilan muvofiqligi);

h) mulkning ishlab chiqarilgan (qurilgan) vaqt, joriy holati;

i) mulkka mustaqil kirish imkoniyati borligi;

j) mol-mulkning xususiyatidan kelib chiqib boshqa holatlar o'rganiladi.

Komissiya tomonidan yuqoridagi ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati bo'limganda garov mulki egasidan yozma ravishda tasdiqllovchi xat talab qilinadi hamda zarur holatlarda, tegishli organlarga murojaat qilinib mulk va uning egasi to'g'risida batafsil ma'lumotlar olinishi mumkin.

Garov mulkini ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha dalolatnomaga tuziladi. Dalolatnomaga ko'zdan kechirish jarayonida olingan fotosuratlar ilova qilinishi zarur. Dalolatnomaga garov obyektini ko'zdan kechirish jarayonida ishtirok etgan barcha BXM xodimlari tomonidan imzolanadi va BXM rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Shuningdek, chakana kreditlardan tashqari har bir kreditning ta'minoti sifatidagi mol-mulk bo'yicha kredit ajratilishidan oldin BXMyarda garov ekspertizasi va monitoring bo'limi tomonidan ushbu garov mulkining holati va qiymati bo'yicha xulosa beriladi. Chakana

kreditlar bo'yicha BXMlarda garov ekspertizasi va monitoring bo'limi tomonidan garov mulki qiymatini kelishuv dalolatnomasining imzolanishi yetarli hisoblanadi. Kredit qo'mitasi qarori asosida ajratiladigan kreditlarning garov ta'minoti bo'yicha Bosh bankning Garov boshqarmasi tomonidan garov mulkining qiymati bo'yicha xulosa beriladi (BXMlarga berilgan bir martalik vakolatlar bundan mustasno).

40. "Garov obyektini baholash" Komissiya tomonidan garovga taqdim etilayotgan mulkni baholagan mustaqil baholash tashkilotining hisoboti, baholash tashkilotining vakolati, faoliyati sug'urtalanganligi va amal qilish muddati o'rganiladi va shu asosida shunga o'xshash obyektlar taklif narxidan, Kredit ta'minoti siyosati talablaridan kelib chiqib garovga olish bahosi belgilanadi va so'ralayotgan kredit summasiga yetarliligi aniqlanadi.

Garovga taqdim etilayotgan mulkni ko'zdan kechirish dalolatnomasi va u asosida BXM rahbari, qarz oluvchi va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolangan garov mulkini baholash bo'yicha kelishuv dalolatnomasi yig'majildga tikilishi lozim.

41. Bank Kredit qo'mitasi vakolatida bo'lган kreditlarga ta'minot sifatida taqdim etilayotgan mol-mulkarning holatini qo'mita a'zolari joyiga chiqqan holda o'rganishi mumkin.

42. BXM kreditlash amaliyoti bilan shug'ullanuvchi bo'lim xodimi garov obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni "Garov reestri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va mazkur Qonunni amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 12-iyundagi 155-sonli qarori asosida kredit ajratilgunga qadar garov reestriga yozuvlarni kiritib boradi hamda ajratilgan kredit mablag'i to'liq qaytarilgandan so'ng **3 (uch)** kun muddatda garov reestridan yozuvlarni chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-noyabrdagi "Mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish uchun qo'yilgan taqiqlarni (xatlovlarni) bekor qilish jarayonlarining soddalashtirilishi munosabati bilan boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlab yoki xatlab qo'yilgan mol-mulklar elektron ma'lumotlar bankini shakllantirish, yuritish va undan foydalanish to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" 626-sonli Qaroriga muvofiq, garov mulkiga 2019-yil 1-yanvar va undan keyin garov shartnomalari hamda ipoteka shartnomalari asosida notarial idoralar tomonidan qo'yilgan taqiqlar kredit qarzdorligi to'liq so'ndirilgandan so'ng BXMlarning murojaat xati asosida Garov boshqarmasi tomonidan bekor qilinadi.

43. Undiruvni garov mulklariga qaratish O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida" va «Ipoteka to'g'risida»gi Qonunlari, Bank tizimida «Muammoli aktivlar bilan ishslash Siyosati», «Muammoli aktivlar bilan ishslash tartibi» hamda garov va ipoteka shartnomalari talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

5-bob. Navbatdagi garovga olish tartibi

44. Garovda turgan mol-mulkni garovga qo'yuvchi tomonidan o'zga shaxsga (garovga oluvchiga) boshqa talablarni ta'minlash uchun berish navbatdagi garov hisoblanadi.

45. Navbatdagi garovga garov to'g'risidagi oldingi shartnomalarda taqiqlanmagan bo'lsa hamda oldingi va navbatdagi garovga oluvchilar tomonidan garov reestriga tegishli yozuv kiritilgan bo'lsagina Bank Boshqaruvi qarori asosida yo'l qo'yiladi.

46. Agar oldingi garov shartnomasida navbatdagi garov shartnomasini tuzish mumkin bo'lган shartlar nazarda tutilgan bo'lsa, navbatdagi garov shartnomasini oldingi shartnomada

ko'rsatilgan shartlarga amal qilgan holda tuzilishi kerak. Shuningdek, garov shartnomasida navbatdagi garovga taqdim etilayotgan mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risida hamda jami garov yuki to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim. Ko'rsatilgan shartlar buzilgan taqdirda oldingi garovga oluvchi shu tufayli yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplashni garovga qo'yuvchidan talab qilishga haqlidir.

47. Navbatdagi garovga oluvchining talabi oldingi garovga oluvchilarning talablaridan keyin, qonunda belgilangan tartibda ushbu mol-mulkning qiymatidan qanoatlantiriladi.

48. Garovga qo'yuvchi har bir navbatdagi garovga oluvchiga garovga qo'yilgan mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishga majbur.

49. Garovga beruvchi garovga oluvchilarning har biriga mazkur mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risida, shuningdek ushbu garovlar bilan ta'minlangan majburiyatlarning miqdori haqida xabar berishi shart hamda bu majburiyatlar bajarilmaganligi tufayli garovga oluvchilarga yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'ladi.

50. Garovga qo'yuvchi "Garov to'g'risida"gi Qonunda va Siyosatning 45-49 bandlarida belgilangan navbatdagi garov to'g'risidagi qoidalarni buzsa, garov shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan hollarda, garov bilan ta'minlangan majburiyat muddatidan oldin bajarilishi talab qilinadi, agar bu talab bajarilmasa, undiruvni garov narsasiga qaratiladi.

51. Agar mol-mulk bir nechta kreditor oldidagi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlasa, garovga qo'yilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan pul mablag'lari mazkur majburiyatlarni "Garov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan navbat bo'yicha bajarishga yo'naltiriladi.

52. Navbatdagi garovda faqat garov obyekti bir qarz oluvchining bir necha krediti bo'yicha garovga olinishiga ruxsat etiladi, alohida holatlarda Bank Boshqaruvinining qarori bilan bitta garov obyektini "Turonbank" ATB tomonidan ajratilgan bir nechta qarzdorning kreditiga navbatdagi garovga olishga istisno tariqasida ruxsat etilishi mumkin. Boshqa banklarda garovda turgan mulklarni "Turonbank" ATB tomonidan, "Turonbank" ATBda garovda turgan mulklarni boshqa banklar tomonidan navbatdagi garovga olinishiga ruxsat etilmaydi.

6-bob. Mustaqil baholovchining hisobotiga talablar

53. Garovga (ipotekaga) berilayotgan mulk qiymati O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida", "Garov to'g'risida", "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunlariga, hamda Bankning tegishli ichki hujjatlariga muvofiq baholanadi.

54. Kredit ta'minotini baholash jarayonida garovga beriladigan mol-mulklar qiymati yuzasidan mustaqil baholash tashkilotining baholash hisoboti olinishi lozim.

55. Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan mulkni baholash hisoboti muddati, kredit ajratishga qaror qilinayotgan kundan **6** oydan oshib ketmagan bo'lishi lozim. Agarda mustaqil baholash tashkilotining hisobotida hisobotning amal qilish muddati **6** oydan kam ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu muddat amal qiladi.

56. Baholash hisoboti kreditlash jarayonida foydali instrument bo'lishi lozim.

57. Hisobot baholashning maqsadi va belgilanishini (kreditlash maqsadida), aniqlanadigan qiymat turini (bozor) ko'rsatish bilan muayyan shaklda tuziladi. Baholovchi hisobotda mulkni batafsil bayon qilishi va uning bozor qiymatini baholab berishi lozim. Baholash natijalari haqida hisobot (masalan, bino) quyidagilardan iborat bo'lishi zarur: binoning

qavatlar bo'yicha rejasi yoki kvartira rejasi, xonaning to'liq bayoni, uning turi va asosiy tavsiflari, muhandislik kommunikatsiyalari (isitish, suv ta'minoti, kanalizatsiya va boshq.), uning holati, umumiy foydalanish joylari holati, zaruriy ta'mirlash ishlari ro'yxati, yaqin hudud tavsifi (tezkor magistralga yaqinligi, transport tuzilmalari sharoitlari, sanoat korxonalarining mavjudligi yoki yaqinligi), ushbu tumanning imtiyozligi bahosi, aholi uchun uning jozibadorlik darajasi, 1 kv.m turar joy maydonining o'rtacha qiymati, ushbu tumanda uy-joy narxining o'sish yoki pasayish istiqbollari. Agar yerning kadastr raqami bo'yicha bir hududda joylashgan bir nechta bino-inshootlar (literlar) va/yoki asbob-uskunalari bilan mulkiy majmua sifatida baholanganda majmuuning umumiy baholangan qiymatidan tashqari undagi har bir bino inshootlar va/yoki asbob-uskunalarning bozor narxi baholash hisobotida alohida (jumladan bank va mijoz o'rtasida garov qiymati yuzasidan tuziladigan kelishuv baholash dalolatnomasida ham garov qiymati alohida) ko'rsatib o'tilishi shart. Baholash hisoboti ushbu talablarga muvofiq bo'lмаган taqdirda bank baholash hisobotini qabul qilmaslik, shuningdek kredit ajratishni rad etishga haqli bo'ladi.

58. Oxirgi 6 (olti) oy uchun bitimlar haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqib, baholovchi joylashgan o'rni, hajmi va tavsifi bo'yicha o'xhash bo'lган kamida uchta ko'chmas mulk obyekti bilan solishtirish o'tkazishi lozim va solishtirilayotgan obyektlar hajmi, tavsiflari va holatining farqlarini hisobga olib, mulkning sotilish bahosi realligiga muvofiqligi haqida xulosa tuzadi.

59. Bank mustaqil baholovchining hisobotini qabul qilmaslik huquqiga ega. Mustaqil baholovchining hisobotidan quyidagi sabablarga ko'ra foydalanilmaydi:

a) hisobotning O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi talablariga nomuvofiqligi;

b) baholash obyektini noto'g'ri identifikasiya qilish;

c) baholash maqsadi va aniqlanadigan qiymat turining kreditlash vazifasiga nomuvofiqligi. Mulk garovi ostida kreditlanganda bank faqat garovga qo'yish maqsadida bajarilgan mustaqil baholovchining hisobotini qabul qilishi mumkin. Bunda baza sifatida majburiy solishtirish usuli bilan aniqlangan mulkning bozor qiymati qo'llaniladi. Baholash qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmagan holda obyektni sotish hisobiga kreditor mablag'larini kafolatlangan qoplash imkoniyatini asoslash uchun bajarilgan bo'lishi lozim;

d) baholashga yondashishning noto'g'ri tanlovi va natijalarning nomuvofiqligi kelishi.

60. Mulkning bozor qiymati 3 ta usul asosida aniqlanadi:

a) xarajat usuli;

b) solishtirish usuli;

c) daromad usuli.

Ipoteka (uy-joy sotib olish)ni kreditlashda hamda kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan garov mulklari jismoniy shaxsga tegishli turar joy yoki avtovositalari bo'lган holatlarda daromad usulini qo'llash talab etilmaydi. Shuningdek, asbob-uskunalar yoki ayrim transport vositalari va maxsus texnikalarning bozor bahosini aniqlashda hisobotda yuqoridaq usullardan birontasi qo'llanilmagan taqdirda, qo'llanilmaganlik sababi real asoslantirilgan bo'lishi lozim.

61. Har bir yondashuvni qo'llashning imkoniyati va maqsadga muvofiqligi hamda har bir yondashish doirasida hisob-kitoblar uslubini tanlash har bir holatda alohida har xil omillar va

baholash obyekti xususiyatidan kelib chiqib aniqlanadi.

62. Bank mutaxassisini garov qiymatini aniqlash uchun baza bo‘luvchi mustaqil baholovchi tomonidan mulkning bozor qiymatini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblarini tekshirishi lozim.

63. BXM rahbari hamda garov mulkini tanlash va qiymatini aniqlash uchun javob beruvchi tegishli xodimlar garovga qabul qilinayotgan mulkni to‘g‘ri tanlash va likvidliligi uchun shaxsan javobgardirlar.

64. Mustaqil baholovchining xizmat to‘lovi qarz oluvchining o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

65. Zarur hollarda, mustaqil baholovchi tashkilotning baholash hisoboti (garovga qo‘yilayotgan mulk bozor qiymatidan yuqori baholanganligi yoki boshqa shubhali hollarda boshqa mustaqil baholash tashkilotida yoki O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish Agentligi maxsus ekspertlari tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi mumkin.

66. Birlamchi bozordan sotib olinayotgan turar-joyni, rasmiy dillerlar va bevosita ishlab-chiqaruvchilardan sotib olinayotgan avtotransport, maxsus texnika hamda boshqa turdag‘i mulklarni, shuningdek kredit mablag‘i hisobidan sotib olinayotgan yangi asbob-uskunalar va qurilayotgan issiqxonalarini garovga olishda mustaqil baholash tashkilotining baholash hisoboti talab etilmaydi. Sotuvchi tomonidan belgilangan narxning sun‘iy ravishda oshirib ko‘rsatilganligiga shubxa tug‘ilgan taqdirda mustaqil baholash tashkilotining baholash hisobotini yoki belgilangan narx yuzasidan ekspert tashkiloti xulosasini talab etish maqsadga muvofiq.

7-bob. Kreditning garov mulkiga nisbatan garov shartnomasini rasmiylashtirish va taqiqqa qo‘yish shartlari

67. Kredit ta’midotiga qabul qilingan har qanday mulkka tuzilgan garov shartnomasi Notarial idora tomonidan rasmiylashtirilishi, garov shartnomasida garovga olinayotgan mulklar literlarining va uskunalarining garov qiymatlari alohida ko‘rsatilishi hamda taqiq qo‘yilishi lozim. Shuningdek, garovga olingan ko‘chmas mulklar bo‘yicha qo‘srimcha qurilish amalga oshirilgan taqdirda Kadastr hujjatlariga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish va garov shartnovasiga qo‘srimcha kelisuv bititmi imzolash orqali garovga rasmiylashtirib qo‘yish talab etiladi. Birlamchi bozordan ko‘chmas mulk yoki avtotransport vositalari sotib olish uchun ajratilgan kreditlar, garov ta’midotiga qabul qilinayotgan ombordagi tovarlar hamda kredit hisobiga sotib olingan uskunalar (ya’ni ushbu uskunalar keltirilib o‘rnatalgandan so‘ng mulkiy majmua sifatida garov ta’midotiga rasmiylashtirilishi belgilangan kreditlar) bundan mustasno, biroq ushbu mulklarga nisbatan garov shartnomalari BXM tomonidan mustaqil rasmiylashtirilishidan avval, mulklar sug‘urtalanishi talab etiladi.

68. Birlamchi bozordan ko‘chmas mulk yoki avtotransport vositalari sotib olish uchun ajratilayotgan kreditlarning garov mulkiga nisbatan garov shartnomasi BXMLar tomonidan mustaqil rasmiylashtiriladi. Ushbu kreditlar ajratilish jarayonida mulk egasi turmush o‘rtog‘ining garovga taqdim etish bo‘yicha rozilik arizasi notarial idora tomonidan rasmiylashtiriladi (birlamchi bozordan avtotransport vositasi sotib olish uchun ajratilgan kreditlar bundan mustasno).

69. Birlamchi bozordan ko‘chmas mulk yoki avtotransport vositalari sotib olish uchun ajratilayotgan kreditlarning garov mulkiga bo‘lgan taqiq Bank xodimi tomonidan qo‘yiladi

hamda taqiq qo'yilganligini tasdiqlovchi "Taqiq karta" yig'ma jildga tikilishi lozim.

8-bob. Garov mulklerini almashtirish va qisman garovdan chiqarish

70. Qarzdor quyidagi talablarga javob bergan holatlardagina garov mulklerini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarishga ruxsat etiladi:

- a) moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishi;
- b) bank hisobvarag'i orqali muntazam pul aylanmasini amalga oshirishi;
- c) oxirgi moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hamda joriy yil tegishli choragi yakuni bo'yicha operativ balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarga ko'ra kreditga layoqatliligi kamida 2-sinf bo'lishi;
- d) Garov mulklerini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish jarayonida mijozning bank oldida muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi;
- e) "Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari" hisobvarag'ida (keyingi o'rnlarda "2-sonli kartoteka") qarzdorligi mavjud bo'lmasligi.

Shuningdek, almashtirish uchun taqdim etilayotgan va garovda qolayotgan mulk likvidli, moddiy va ma'naviy eskirmagan bo'lishi, bozorda erkin sotilishi, ya'ni unga xaridor topish mushkul bo'lmasligi zarur.

Ushbu shartlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, majlis bayonlari va topshiriqlari asosida ishlarni bajarayotgan (xizmatlarni ko'rsatayotgan) xo'jalik yurituvchi subyektlarga ajratilgan kreditlar, uchinchi shaxslarning mulki garovga olingan holda ajratilgan kreditlar, strategik mijozlar va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirayotgan, shuningdek yuqoridaq talablar to'liq bajarilmaganlik sabablari real asoslantirilgan qarzdorlar bo'yicha alohida hollarda Bank Boshqaruvi qarori asosida istisno qilinishi mumkin.

71. Garov mulklerini almashtirishda va qisman garovdan chiqarishda garovdan chiqarilayotgan mulklarning o'rniqa taqdim qilinayotgan mol-mulklerning bozor qiymatini belgilash to'g'risidagi mustaqil baholovchi tashkilotining hisoboti (zarur hollarda baholash hisobotini to'g'ri rasmiylashtirilganligi yuzasidan ekspertiza xulosasi) taqdim etilishi zarur.

9-bob. Garov mulklerini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasini ko'rib chiqish tartibi

72. Qarzdorning garovdagi mulklarni almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish yuzasidan qilgan murojaatiga muvofiq BXM kredit bo'limi mas'ul xodimi tomonidan mijozning joriy moliyaviy holati (oxirgi moliyaviy yil yakuni va joriy yil tegishli choragi yakunlari bo'yicha buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalari hamda debtorlik va kreditorlik qarzdorliklari to'g'risidagi hisoboti), biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, har qanday qarzdorliklar, shu jumladan boshqa bankdagi kredit va boshqa qarzlari, kartoteka qarzdorliklari tahlil qilingan holda xulosa yoziladi. Xulosa uni tayyorlagan kredit bo'limi mas'ul xodimi va kredit bo'limi boshlig'i tomonidan imzolanadi hamda BXM rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishini tahlil qilishda asosiy e'tibor qarzdor tomonidan pul oqimlari ko'rsatkichlari oyma-oy bajarilishi holatiga e'tibor qaratilishi lozim.

73. Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasi ko'rib chiqilayotganda qarzdorning jami majburiyatlari miqdori qaytadan hisoblab chiqiladi. Agarda qarzdorning majburiyatlari summasi BXM Kredit komissiyasi vakolatida bo'lsa, Garov obyektini o'rganish bo'yicha BXM komissiyasi, BXM vakolatidan yuqori bo'lsa Kreditqo'mitasini tomonidan mol-mulklar, ularning xususiyatidan kelib chiqqan holda joyiga chiqib o'rganiladi.

74. Garov obyektini o'rganish bo'yicha komissiya tomonidan mol-mulkarning holatini o'rganish natijalari bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaga ko'zdan kechirish jarayonida olingen fotosuratlar ilova qilinishi zarur. Dalolatnoma garov obyektini ko'zdan kechirish jarayonida ishtirok etgan barcha xodimlar tomonidan imzolanadi.

75. Garov obyektini o'rganish komissiyasi tomonidan mol-mulkarning holati o'rganilishida mazkur Siyosatning 39-bandiga talablariga e'tibor qaratilishi zarur.

76. Garov obyektini o'rganish komissiyasi tomonidan mulkni baholagan mustaqil baholash tashkilotining hisoboti, baholash tashkilotining vakolati o'rganiladi va u asosida shunga o'xshash obyektlar taklif narxidan, Kredit ta'minoti siyosati talablaridan kelib chiqib garovga olish bahosi belgilanadi va kredit bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga yetarliligi aniqlanadi.

Mulkni o'rganish natijalari bo'yicha dalolatnoma va u asosida BXM rahbari, qarz oluvchi va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolangan garov mulkini baholash bo'yicha kelishuv dalolatnomasi yig'majildga tikilishi lozim.

77. Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha hujjatlarning amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilganligi yuzasidan BXM yuristi tomonidan xulosa tayyorlanadi.

78. Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasi BXM Kredit komissiyasi yig'ilishida muhokama qilinadi va uning natijasi bo'yicha Kredit komissiyasi majlis bayoni rasmiylashtirilib, u komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

79. Qarzdorning garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha murojaati rad etilgan taqdirda bank BXMi tomonidan rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma ravishda qarzdorga javob berilishi zarur.

80. Garov mulkini almashtirish masalasi bo'yicha BXM Kredit komissiyasi tomonidan ijobjiy qaror qabul qilingan taqdirda, ushbu masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun quyidagi hujjatlar to'plamidan iborat yig'majild bank Kredit qo'mitasiga taqdim etiladi:

- a) garov mulkini almashtirish to'g'risida qarzdorning arizasi;
- b) BXM kredit bo'limi xodimining ijobjiy xulosasi;
- c) BXM Kredit komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolangan ijobjiy qarori;
- d) garov mulkinining bozor qiymatini belgilash to'g'risidagi mustaqil baholovchi tashkilotining hisoboti (zarur hollarda baholash hisoboti bo'yicha ekspertiza xulosasi);
- e) garov mulki qiymatini kelishuv baholash dalolatnomasi loyihasi;
- f) "Garov mulkini baholash komissiyasi" tomonidan garov mulkinining o'rganilganligi to'g'risidagi dalolatnoma;
- g) BXM yuristining xulosasi;
- h) Garov ekspertizasi va monitoring bo'limi xulosasi;
- i) garovga taqdim etilayotgan turar joyda hech kim ro'yxatda turmasligini tasdiqlovchi hujjat;

j) kredit ta'minoti sifatida turar joyni garovga berish va uni begonalashtirish mumkinligi bo'yicha uyda istiqomat qiluvchilarning notarial tasdiqlangan rozilik xatlari;

k) mulk egasi pasportining ro'yxatga olingan (propiska) manzili ko'rsatilgan nusxasi (jismoniy shaxslar uchun);

l) garovga qo'yilayotgan mulk davlat korxonasiga tegishli bo'lgan taqdirda qo'shimcha ravishda: O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan holatlarda ko'chmas mulkni garovga berish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ruxsatnomasi;

m) garov mulkining tashqi (fasad) qismi, har bir turar va noturar xonalari, shu jumladan hovli maydonlari tasvirlangan fotosurat (bunda 18 x 24 sm. o'lchamdagisi fotorasmlar (tashqi tarhi, asosiy konstruksiyalar, xonalarning va yerto'lalarning interyeri);

n) avtotransport vositalari, qishloq xo'jaligi va qurilish texnikalarining texnik pasporti va masofa o'lchovi (spidometr) ko'rsatkichlari bilan birga to'rt taraflama fotosurati.

o) texnologik liniya asosiy qismlarining har tomonlama fotosurati;

p) garov mulkining turidan kelib chiqib zarur hollarda qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.

81. Garov mulkini qisman garovdan chiqarish bo'yicha BXM Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, ushbu masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun quyidagi hujjatlar to'plamidan iborat yig'majild bank Kredit qo'mitasiga taqdim etiladi.

a) garov mulkini qisman garovdan chiqarish to'g'risida qarzdorning arizasi;

b) BXM kredit bo'limi xodimining ijobiy xulosasi;

c) BXM Kredit komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolangan ijobiy qarori;

d) Garov mulkini baholash komissiyasi tomonidan garovda qolayotgan mulklarni ko'zdan kechirish dalolatnomasi;

e) BXM yuristining xulosasi;

f) Garov ekspertizasi va monitoring bo'limi xulosasi.

82. Garov mulki sifatida texnologik liniyalar taqdim etilayotganda garovga taqdim etilayotgan (yoki almashtirilayotgan) texnologiyalarning ishlashi bevosita garovda bo'limgan boshqa liniyaga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmasligi shart.

83. Garov mulki sifatida muomaladagi tovarlar taqdim etiladigan bo'lsa, u holda Kredit ta'minoti siyosati talablariga muvofiq garovga qo'yilayotgan muomaladagi tovarlarning kelib chiqishiga va yaroqlilik muddatlariga e'tibor berilishi hamda ularning sifat sertifikatlari bojaxona deklaratasiysi hamda tovarlarning mavjudligini tasdiqlovchi boshqa har qanday hujjatlar talab qilinishi lozim.

84. Garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha BXM rahbarining xati asosida barcha hujjatlar bank Kredit qo'mitasiga taqdim etilganidan so'ng bankning Monitoring va nazorat departamenti mas'ul xodimlari tomonidan BXM tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida xulosa yoziladi. Ushbu xulosa uni tayyorlagan mas'ul xodim, Monitoring va nazorat departamenti direktori tomonidan imzolanadi.

85. BXM tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish jarayonida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Monitoring va nazorat departamenti tomonidan mazkur masala bank Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritilmasdan, xato va kamchiliklar ko'rsatilgan holda BXMa

qaytarilishi mumkin.

86. Garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi bo'yicha Monitoring va nazorat departamentining xulosasi hamda BXM tomonidan taqdim etilgan yig'majildlar to'plami yakuniy qaror qabul qilish uchun bank Kredit qo'mitasiga taqdim etiladi.

Bunda, BXM Kredit komissiyasining qaroriga muvofiq kredit qoldig'i **500** mln.so'mdan oshmaydigan, kredit ta'minoti siyosatida belgilangan mezonlarga javob beradigan kreditlar bo'yicha monitoring va nazorat departamentining xulosasi asosida Boshqaruv Raisi birinchi o'rribbosari yoki Boshqaruv Raisi o'rribbosarlari tomonidan imzolangan ruxsat xati asosida garov mulklarini almashtirish yoki qisman garovdan ozod etish mumkin.

87. Bank Kredit qo'mitasi BXM tomonidan taqdim qilingan hujjatlarni va Monitoring va nazorat departamentining xulosasini o'rganib chiqqan holda so'nggi qarorni qabul qiladi.

88. Kredit qo'mitasining tegishli qarori qabul qilingandan so'ng **1 (bir)** bank ish kuni ichida BXMGa ma'lumot beriladi.

89. Tegishli kollegial organning yakuniy qarori qabul qilingandan so'ng garov mulki qiymatini kelishuv baholash dalolatnomasi va boshqa hujjatlar rasmiylashtiriladi.

90. Bank boshqaruvi yoki Bank kengashi qarori asosida ajratilgan kreditlar bo'yicha garov mulkini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi yuzasidan Kredit qo'mitasining tegishli qarori mos ravishda Bank boshqaruvi yoki Bank kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi.

91. Almashtirishga taqdim etilayotgan mulk garovga olinmasdan avval turli xil ofatlardan saqlash va oldini olish yuzasidan kreditning to'liq muddatiga sug'urta qilinishi, notarial garov shartnomasi rasmiylashtirilgandan so'ng tegishli idoralardan mazkur mulklarning uchinchi shaxsga sotilishi yoki har qanday tarzda begonalashtirilishi yuzasidan taqiqnoma rasmiylashtirilishi lozim.

10-bob. Javobgarlik

92. BXM rahbarlari, shuningdek kredit, buxgalteriya va boshqa tegishli bo'linmalar xodimlari tomonidan mazkur Kredit ta'minoti siyosatning talablariga rioya qilinmagan taqdirda ularga nisbatan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda intizomiy jazo choralar qo'llaniladi.

93. Bank tizimida ushbu Siyosat talablari, tartib-qoidalariga muvofiq kredit ta'minotiga oid masalalarni ko'rib chiqish va rasmiylashtirish jarayonlarida korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tizimi tartib-qoidalarini, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablarini buzgan rahbar va mas'ul xodimlar lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

94. Mas'ul xodimlar o'z rahbari va Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullariga ularni korrupsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog'liq, shuningdek ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to'g'risida xabar berishi lozim.

95. Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki Bankning boshqa

ichki hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan Bank xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlari doirasida va ularda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

96. Bank tizimida kreditlash jarayonlari, Adliya vazirligida 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurollarni tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

11-bob. Yakuniy qoidalari

97. Ushbu “Turonbank aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’mnoti siyosati” 2025-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

98. Mazkur Siyosatga o‘zgartirish va qo‘srimchalar faqat Bank Kuzatuv kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

99. Ushbu Siyosatga Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi, Bankning Kredit qo‘mitasi va Bankning boshqa kollegial organlari, Monitoring va nazorat qilish, Korporativ biznes, Kichik va o‘rta biznes, Chakana biznes, Anderryting, Muammoli aktivlar bilan ishslash, Risk, Buxgalteriya hisobi departamentlari, Bank markazlarining kredit amaliyotlari va monitoringi mas’ul xodimlari, BXM Kredit komissiyalari a’zolari, tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbar va mas’ul xodimlarining rioya etishi majburiy hisoblanadi.

100. Mazkur Siyosat ijro etilishi ustidan nazorat va amalga oshirilishi bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil qilish bo‘yicha tegishli vakolatlar Bank Boshqaruviga beriladi.

101. Ushbu Siyosat talablarini buzishda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

102. Mazkur Siyosatda ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bank ichki me’yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

103. Ushbu “Turonbank aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’mnoti siyosati” tasdiqlanishi munosabati bilan Bank Kuzatuv kengashining 2024-yil 26-yanvardagi K-6-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Turonbank aksiyadorlik tijorat bankining Kredit ta’mnoti siyosati” o‘z kuchini yo‘qotadi.

Kiritildi:

**Monitoring va nazorat qilish
departamenti direktori**

S.R.Jumaniyozov

Ekspert guruhi bilan kelishildi:

**Guruh rahbari, Boshqaruv
Raisining birinchi o‘rinbosari v.b.**

**Guruh rahbari o‘rinbosari,
Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b.**

Ekspert guruhi a’zolari

Bank yuridik xizmati boshlig‘i

**Komplaens nazorat
departamenti direktori**

Risk masalalari direktori

**Xodimlarni boshqarish (HR)
departamenti direktori**

**Bosh menejer — Korporativ biznes
departamenti direktori**

**Bosh menejer — Kichik va o‘rta biznes
departament direktori**

**Bosh menejer - Chakana biznes
departament direktori v.b.**

**Bosh menejer — Muammoli aktivlar
bilan ishslash departamenti direktori**

**Bosh buxgalter — Buxgalteriya hisobi
departamenti direktori**

**Loyihalarни boshqarish
ofisi rahbari**

**Moliya bozorlaridagi operatsiyalar
departamenti direktori v.v.b.**

**Filial tarmoqlarini boshqarish
departamenti direktori**

**Axborot texnologiyalari
departamenti direktori**


Operatsion departamenti direktori

**Mijozlar servisi va marketing
departamenti direktori**

Strategiya bo‘yicha rahbar

**Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish
boshqarmasi boshlig‘i**


S.T.Kaldibayev


T.X.Axmedov



Sh.A.Nurnazarov


D.B.Sultanov


D.K.Ibragimova


N.I.Tangniberdiyev


A.N.Muradov


A.A.Muazzamov


A.K.Talipov



Z.N.Boboyev


Sh.E.Bozorov



F.A.Ismailov



F.R.Hakimov



T.Y.Kodirov


Z.Y.Ibragimov


D.M.Nazarova


F.A.Ruzikulova


A.S.Sherov


M.J.Mo‘minov

**“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banking kredit ta’minoti siyosati loyihasi yuzasidan
huquqiy ekspertiza
X U L O S A S I**

2024-yil 20-dekabr

Toshkent shahri.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi 2733-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmat to‘g‘risida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda №916-son bilan ruyxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning 3.1. bandiga asosan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banking kredit ta’minoti siyosatining loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda, quyidagilar

A N I Q L A N D I:

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banking kredit ta’minoti siyosatining loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda, loyiha O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Garov to‘g‘risida”, “Ipoteka to‘g‘risida”, “Lizing to‘g‘risida”, “Baholash faoliyati to‘g‘risida”, “Iste’mol krediti to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi, 2024-yil 27-fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘sishimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-914-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi “Tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini ta’minalash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4071-sun Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida” Nizomi, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Ustavi, 2023-2027-yillarda “Turonbank” ATBning rivojlanish Strategiyasi, Bankning ichki me’yoriy hujjatlari talablariga, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyihada umumiy qoidalar, Siyosatning maqsadi va Bank tizimida kredit ta’minoti bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy vazifalar, Kredit ta’minotiga qo‘yiladigan talablar, Kredit hajmining garov qiymatiga nisbati, Navbatdagi garovga olish tartibi, Mustaqil baholovchining hisobotiga talablar, Kreditning garov mulkiga nisbatan garov shartnomasini rasmiylashtirish va taqiqqa qo‘yish shartlari, Garov mulklarini almashtirish va qisman garovdan chiqarish, Garov mulklarini ali..ashtirish va qisman garovdan chiqarish masalasini ko‘rib chiqish tartibi, javobgarlik va yakuniy qoidalar belgilab qo‘yilgan.

“Turonbank” ATB Monitoring va nazorat qilish departamenti tomonidan ishlab chiqilgan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banking kredit ta’minoti siyosatining loyihasi qonun hujjatlariga zid emas va qonunchilik texnikasi talablariga to‘liq javob beradi.


Yuqoridagilarga binoan, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banking kredit ta’minoti siyosatining loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

X U L O S A Q I L I N D I:

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banking kredit ta’minoti siyosatining loyihasi qonun hujjatlarasi asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

Loyiha ko‘rib chiqish uchun Ekspert guruhi muhokamasiga taqdim etilsin.

**Bank yuridik xizmati
boshlig‘i o‘rinbosari**


A.X. Xalyigitov